

5-Mavzu: Ajoyib topilma

Dars maqsadi:

- Sinken Xoppning "Yun va Sofus" asaridan oligan parcha mazmuni bilan tanishtirish;
- ajoyib topilmalar haqida qisqacha ma'lumot berish;
- og'zaki nutqini va lug'at boyligini oshirish.
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish.

Tayanch so'zlar: Yun Sofus, sehrli bo'r

Didaktik materiallar: Bo'r, bo'yoq, qalam, flomaster

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashqni o'tkazish.

So'zlarni o'z o'rniga qo'ying va jumlani o'qing.

o'rganilgan yangiliklar orqali izlanishlar

II. O'tilganlarni takrorlash. (10 daqiqa)

Yo'l belgilari va svetofor haqida topib yod olingan she'rlar so'raladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq. Chizmaga mos so'z toping.



Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Siz qanday so'zlar topdingiz?
2. Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

Mavzuni tushuntirish.

O'quvchilarga quyidagi savollarni berish tavsiya qilinadi.

Ajoyib topilma deganda nimani tushunasiz?

Ajoyib topilma deb hisoblagan narsalarga 2 ta misol keltiring.

Darsda foydalanadigan bo'rni topilma deya olamizmi? Nima uchun?

Darslikda berilgan rasm yuzasidan suhbatlashiladi va berilgan ma'lumot o'qitiladi.

Matn ustida ishlash.

Mashq daftaridagi topshiriq bajariladi.

- *Norvegiyada tug'ilgan Sinken Xopp taxallusi bilan ijod qilgan yozuvchining asl ismini bilib olasiz.*

Signe Mari Brokman

Muallif haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Sinken Xopp taxallusi bilan ijod qilgan yozuvchi, shoira Signe Mari Brokman Norvegiyada tug'ilgan.

Ilk she'riy to'plamlari – **“Murabbiyaning she'rlari”**, **“Tog' tekisligi manzarasi”** uning asl ismi bilan, qolgan asarlari Sinken Xopp taxallusida nashr etilgan.



“Yun va Sofus” ertagi o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Yun nimani topilma deb hisobladi?
2. U qayerga rasm chizdi?
3. Nima uchun uning chizgan rasmi g'alati chiqdi?
4. Bolakay o'zini kim deb tanishtirdi?
5. Nega Yun quyonning rasmini tezda o'chirdi?
6. Agar sizning ham sehrli bo'ringiz bo'lganda nimaning rasmini chizgan bo'lar edingiz? Nima uchun?
7. Sizga ertakning qaysi qismi ko'proq yoqdi? Fikringizni izohlang.
8. Sizga ertak matnida notanish so'zlar uchradimi?

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

O'ng'ay – qulay.

G'alati – odatdagidan boshqacha.

Qiyg'os – hammasi baravariga, yoppasiga.

Bo'liq – mo'l, barakali.

G'ujg'on – to'da, to'p holatda harakatlanmoq.

Topilma – izlanish, qidiruv ishlari natijasida topilgan.

“Tanlab o'qish” mashqi.

Lug'atda berilgan so'zlar ishtirok etgan gaplari topib o'qitiladi.

Yun chizgan eshikning u tarafidagi manzarani ta'riflab beriladi. Shu gaplar matndan topib o'qitiladi.

Mashq daftari bilan ishlash.

O'quvchilar mustaqil ravishda daftarda berilgan topshiriqni bajaradilar. Ertakdagi voqealar ketma-ketligini aniqlaydilar.

-  Yun quyoning boshini chizar-chizmas Sofus undan hoziroq bas qilishini so'radi. 5.
-  "Ikkalamiz bir bo'lsak, zerikmaymiz", deb o'yladi Yun. 4.
-  Yun chizishni tugatgan zahoti bolakayga jon kirdi. 3.
-  Yun eshik rasmini chizgan edi, u darrov ochiladigan bo'ldi. 6.
-  Devorga bo'r bilan bolakay rasmini chizdi. 2.
-  Oxiri ko'k rangga bo'yalgan devorning oldiga kelib to'xtadi. 1.

Darlikdagi **"Bu qiziq"** rukni ostidagi ma'lumotlar o'qiladi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Bugun darsda sizga nima qiziq bo'ldi?
- Ajoyib topilmalarga yana nimalarni kiritgan bo'lardingiz?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Ertakning mazmunini so'zlab bering va mazmuniga mos rasm ishlang. O'ylab ko'ring, siz yana nimalarni "Yordamchilar" ro'yxatiga kiritgan bo'lardingiz?